INNOVATSIYA VA TARAQQIYOT
10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI

DIALEKTIZMLARNING LINGVOPOETIK IMKONIYATLARI (SHAVKAT RAHMON SHE'RLARI MISOLIDA)

Yunusova Jamila Boltaboyevna,
O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti ilmiy xodimi,
O'zJOKU o'qituvchisi (PhD)
E-mail: Jamila2020_yunusova@mail.ru

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.19967810

Annotatsiya. *Bugungi kunda jahon tilshunosligida antroposentrik tilshunoslik jadallik bilan rivojlanib bormoqda. Tilni inson omili bilan birga o'rganish tilshunoslikning qator yo'nalishlari uchun keng yo'l ochmoqda. Xususan, lingvopoetika sohasi tilning badiiy matnda estetik funksiyalashuvini tadqiq etuvchi soha bo'ilb, tilning ifoda imkoniyatlarini, til birliklarining badiiy matnda emotsional-ekspressiv ta'sirchanlikni yuzaga keltirish mexanizmini o'rganadi. Sheva so'zlar tilning boyishida, leksigokrafiyasining tartibga solinishida, milliy-ma'naviy xususiyatni saqlashda behad katta o'ringa ega. Dialektizmlarning badiiy matnda qo'llanishi lingvopoetik jihatdan tadqiq etishni taqozo qiladigan tilshunoslikning muhim masalalardan biri. Ushbu maqolada dialektizmlarning she'riy matnda qo'llanishi, estetik imkoniyatlari lingvopoetik jihatdan tadqiq etilgan.*

Kalit so'zlar: *dialektizm, lingvopoetika, emotsional-ekspressivlik, mahalliy kolorit, sheva so'zlar, individuallashtirish.*

Аннотация. *Сегодня в мировой лингвистике стремительно развивается антропоцентрическая лингвистика. Изучение языка вместе с человеческим фактором открывает широкие возможности для ряда направлений лингвистики. В частности, лингвопоэтика – это область, изучающая эстетическую функциональность языка в художественном тексте, изучающая выразительные возможности языка, механизм возникновения эмоционально-экспрессивной чувствительности языковых единиц в художественном тексте. Диалектные слова играют огромную роль в обогащении языка, упорядочении его лексикографии, сохранении национально-духовной идентичности. Использование диалектизмов в художественном тексте является одним из важных вопросов языкознания, требующих лингвопоэтического исследования. В данной статье лингвопоэтически исследованы использование диалектизмов в поэтическом тексте и их эстетические возможности.*

Ключевые слова: *диалектизм, лингвопоэтика, эмоциональная экспрессивность, местный колорит, диалектные слова, индивидуализация.*

Abstract. *Today, anthropocentric linguistics is developing rapidly in world linguistics. The study of language together with the human factor opens a wide path for a number of areas of linguistics. In particular, the field of linguopoetics is a field that studies the aesthetic functioning of language in a literary text, studying the expressive capabilities of language, the mechanism of language units to create emotional and expressive impact in a literary text. Dialect words play an enormous role in enriching the language, regulating lexicography, and preserving national-spiritual characteristics. The use of dialectisms in literary texts is one of the important issues of linguistics that requires linguopoetic research. This article examines the use of dialectisms in poetic texts and their aesthetic possibilities from a linguopoetic perspective.*

Keywords: *dialectalism, linguopoetics, emotional-expressiveness, local color, dialectal words, individualization.*

Kirish. Badiiy matnda shevaga xos so‘zlar ham estetik vazifa bajaradi. Dialektizmlarning tilshunoslikda o‘rganilishi, badiiy xususiyatlari haqida “So‘z estetikasi” risolasida quyidagi fikrlar berilgan: “badiiy asarning xalqchilligini ta’minlashda xalq tilining rango-rang vositalari, xususan, sheva so‘zlari ham alohida o‘rin tutadi. Badiiy asar tilining tasviriyligi, ifodaliligi, qahramonlar nutqining individuallashganligi ko‘p jihatdan o‘rinli me’yorida qo‘llangan sheva unsurlariga bog‘liq” [8.204]. Dialektal so‘zlarning ko‘pchiligi tilimizning uzoq o‘tmishini, xalqimizning turmushi, madaniyati, urf-odatlari va shu kabilarni o‘zida yorqin aks ettiradi [1.27].

Adabiy tilning boyish manbalaridan biri shevalardan so‘z olish yo‘li bilan amalga oshadi. Dialektal so‘zlarning ma’lum bir sheva, lahja doiarsidagi qo‘llanishdan umumiste’molda foydalanishga o‘tish yo‘li mahoratli ijodkorlar tomonidan badiiy asarlarda so‘zlarning poetik imkoniyatlarini ishga solish orqali amalga oshiriladi. Dialektizmlarning badiiy matnda lingvopoetik vazifa bajarishi, ularning ijodkor badiiy maqsadini ifodalashdagi o‘rni, qo‘llanish me’yori, ishlatilishida namoyon bo‘ladi. Ularning “badiiy asar tilida me’yoridan ortiq darajada qo‘llanishi asarning estetik qimmati, uning ta’sir kuchini pasaytiradi, asar tilining ravonligiga putur yetkazadi” [1.23].

Adabiyotlar tahlili. Tilshunosligimizda dialektizmlarning badiiy matndagi stilistik va poetik vazifasi o‘rganilishi haqida so‘z borganida shevaga xos so‘zlarning nasriy asarlarda ko‘proq o‘rganilganiga guvoh bo‘ldik. Shevaga oid tadqiqotlarda “Bunday unsurlar (sheva unsurlari *i.b.*) hududiy mansublik, mahalliy koloritni alohida ta’kidlashga xizmat qiladi” [4.212], “O‘zbek adabiy tilida uchramaydigan, faqat shevalarda qayd qilinadigan so‘zlar. Bunday so‘zlar badiiy adabiyotlarda sheva koloritini berish jarayonidagina qo‘llanadi” [2.28], “Badiiy asarda mahalliy koloritni berish, qahramonning nutqini individuallashtirish, uning qayerlik ekanini, tilidagi xususiyatlarni ko‘rsatish maqsadida sheva so‘zlardan foydalanadi” [9.63] kabi ta’kidlar mavjud. Haqiqatda, nasriy asarlarda dialektizmlar hududiy mansublikni ta’kidlash, mahalliy koloritni berish, qahramon nutqini individuallashtirishga xizmat qiladi. Biroq she’riy nutqda dialektizmlarning vazn talablaridan kelib chiqqan holda boshqa poetik jihatlari ham yaqqolroq namoyon bo‘ladi.

Masalan, so‘zning poetik jarangga egaligi, ifodaviyligi, vazn talabiga ko‘ra qofiyadoshlik, ya’ni ohang butunligini hosil qilishi, kitobxon e’tiborini tez tortishi, ijodkorning badiiy-g‘oyaviy maqsadini ifodalashi kabi poetik vazifalari faollashadi.

Tadqiqot metadologiyasi. Tadqiqotda lingvopoetik tahlil, tavsifiy hamda qiyosiy metodlardan foydalanildi. Shavkat Rahmon she’rlari matni asosida dialektizmlarning fonetik va leksik turlari ajratilib, ularning badiiy-estetik funksiyasi

kontekstual tahlil orqali yoritildi. Shuningdek, sheva birliklarining emotsional-ekspressivlik, mahalliy kolorit va individuallashtirishdagi o‘rni ilmiy-nazariy manbalar bilan uyg‘un holda baholandi.

Tahlillar va natijalar. Shavkat Rahmon she’rlarida shevaga oid so‘zlarning qo‘llanishida shoirning muayyan badiiy-g‘oyaviy maqsadini ta’sirchan ifodalash bilan birga, adabiy tilni shevaga oid go‘zal so‘zlar bilan boyitish, sheva so‘zlarni faollashtirish va bu orqali so‘zda yangi ijtimoiy ma’no qirralari hosil qilinishi kuzatiladi.

Oybek asarlaridagi dialektizmlarni tadqiq etgan B.Fayzullayev ularni quyidagicha turlarga bo‘lib o‘rganish mumkinligini ta’kidlaydi: 1) adabiy tilda va shevada bir xil ma’noni anglatuvchi, lekin adabiy tildagi variantlardan fonetik va morfologik jihatdan farq qiluvchi leksik dialektizmlar. Masalan, mayram (bayram). 2) shevaga xos bo‘lgan leksik dialektizmlar. 3) etnografik dialektizmlar. 4) semantik dialektizmlar.

Tilshunos olim M.Yo‘ldoshev dialektizmlarni uch guruhga bo‘lib o‘rganadi: sof leksik dialektizmlar, etnografik dialektizmlar, semantik dialektizmlar” [6.60].

Biz ham yuqoridagi tasniflarga tayangan holda shoir she’rlarida qo‘llangan dialektizmlarni fonetik, leksik guruhga bo‘lib o‘rganishni maqsad qildik.

Shuni ta’kidlash lozimki, “fonetik dialektizmlarda emotsional bo‘yoq kuchli bo‘lmaydi. Bundan tashqari shevaga xos bo‘lgan tovushlar sistemasini transkripsiya orqaligina aniq berish mumkin” [7.62]. Shunga qaramasdan, shevadagi bu tovushlar farqliligidan badiiy matnda estetik maqsad bilan qo‘llaniladi, chunki bu farqlililk badiiy nutqqa jozibadorlik, jonlilik bag‘ishlaydi. Shoir she’rlarida bir qator fonetik dialektizmlar uchraydi. Masalan:

Kutaverib charchar, nihoyat
o‘ylab qolar ilk bor o‘zini,
***chaqirvolar** ko‘pdan ko‘chada*
yo‘l poylagan ikki ko‘zini... (“Yog‘izlik”)

She’rda uch o‘g‘ilni o‘stirgan chol umrining poyonida kasallikdan emas, yolg‘izlikdan qiynalib o‘limni bo‘yniga olgani bayon etiladi. Lirik qahramonning nutqini individuallashtrishda shoir *chaqirib olmoq* fe’lining *chaqirvolar* tarzida beradi va cholga xos xususiyatni bo‘rttiradi. Shuningdek, *kutmoq, ko‘z tikmoq* mazmunnini ifodalashda *chaqirvolar ko‘pdan ko‘chada yo‘l poylagan ikki ko‘zini...* tarzida ifodalanishi she’r badiiyatini kuchaytirgan.

Shavkat Rahmon she’rlarida *fonetik dialektizmdan* muayyan badiiy-g‘oyaviy maqsadni ifodalashda foydalangan. Masalan:

Notiqlar esdalik aytar avlodga:

bir payt, azizlarim,
***Masko‘p** orqali*
borib kelar edik qo‘shni afg‘onga. (“Orzuga ayb yo‘q”)

Samoviy torlari kesilgan,
xudoga tenglaydi o‘zlarin,
zaiflar ketidan ezitgan
***ustaldan** ololmas ko‘zlarin.* (“Fitnachi xususida”)

“Orzuga ayb yo‘q” she’ridan keltirilgan parchada *Masko‘p* (Moskva) fonetik dialektizmi nutqqa jonlilik baxsh etish bilan birga tasvirlanayotgan davrni aniq tasavvur qilish imkonini beradi. Keyingi keltirilgan parchadagi milliy til xususiyatini aks ettiruvchi *ustaldan* dialektizmi esa mahalliy koloritni ta’kidlash bilan birga shoirning salbiy munosabatini ifodalashda muhim vosita bo‘lib xizmat qilgan.

Shavkat Rahmon she’rlarida *leksik dialektizmlar* ham muhim poetik vazifa bajargan. Shoir ularni mahorat bilan matnga olib kiradi va badiiy-g‘oyaviy maqsadi uchun foydalanadi.

Shoir she’rlarida leksik dialektizmlarning ikki turi uchraydi: Sof leksik dialektizmlar va semantik dialektizmlar. *Sof leksik dialektizmlar* adabiy tilda ma’nodoshi bo‘lgan dialektizmlar.

Shavkat Rahmon sheva so‘zlarini qo‘llashda ham juda ham ma’suliyatli. Ularni matnga saralab, ma’nosi va fonetik qobig‘iga, ohangdorligiga e’tibor berib olib kirgan.

Xullas, ushbu qolar yangi davrdan:
*Tag‘in tut tagida **buvak** big‘-big‘lar,*
hammaning holiga har yoqdan qarab,
eshaklar kular-u
xo‘tiklar yig‘lar... (“Ommaning ahvoli”)

Buvak so‘zi Farg‘ona vodiysida *yangi tug‘ilgan bola, chaqaloq*[14] ma’nosida qo‘llanadi. Badiiy matnda ushbu so‘zda ekvivalentiga nisbatan poetik uslubga xoslangan va unda ifoda imkoniyatlari kengroq. Chunki uning mazmuniy maydonida *kichkina, achinish* semalari mavjud, *big‘-big‘lar* taqlid so‘zi bilan integratsiyalashib, kitobxon tasavvurida mavjud holatni tiniq tasvirlash imkoniyatini yaratgan.

***Telvakezik**, sayoq shamoldan*
g‘azablanib, ulkan, ulug‘vor
boshin chayqab qo‘yar-da, uzoq
g‘ijirlatar tishlarin chinor. (“Yoz tuni”)

Telvakezik [5.128] leksemasi shevaga oid so‘z bo‘lib, maqsadsiz ko‘p aylanib yuraveradigan insonlarga nisbatan qo‘llanadi. Bu so‘zni shoir shamolga nisbatan qo‘llab, uning tartibsiz harakatini to‘liq ifodalash imkoniyatiga ega bo‘lgan.

Ba’zan shoir sheva so‘zlarga havola bilan izoh bergan o‘rinlar ham uchraydi.

Unutganim yo‘qdir hali
o‘yinqaroq zilol suvni,
tol tagida shom mahali
g‘ira-shira ikki ***quvn****i.* (“Esdalik”)

“Esdalik” she’ridan olingan parchada muallif tomonidan *quv* so‘ziga 1 raqami bilan havola berilib, sahifa so‘ngida “Quv – sutni chayqatib, shopirib yog‘ini ajratib oladigan asbob” tarzida so‘zga izoh berilgan va so‘zning ma’nosi reallashtirilgan. Chunki bu so‘z adabiy tildagi *quv* (ayyor) so‘ziga shakldosh bo‘lib ayni ma’nosi bilan ham matnda ishtirok etishi mumkin edi. Shoirning badiiy maqsadi qishloqning kun botish paytidagi o‘ziga xos tasvirini yaratish. Bu o‘rinda “*g‘ira-shira ikki quv” so‘z birikmasi orqali* ayni shu mahal qishloqda ish qizg‘in bo‘lib, hamma xo‘jalik yumushlari bilan band bo‘lishi tasvirlangan. Bu so‘z yordamida matnda ifodalanmagan xo‘jalik hayvonlariga qarash, sigir sog‘ish, sutni qaymog‘idan ajratish kabi yumushlar bilan band bo‘lgan insonlar tasviri ham kitobxon tasavvurida oson gavdalanadi. Demak, she’rda *quv* so‘zining qo‘llanishi she’r misralaridagi ohangdoshlikni ta’minlash bilan birga manzara suratini to‘liq gavdalantirishda muhim lingvopoetik vazifa bajargan.

Kuzatilganidek, leksik dialektizmlar nasriy asarlarga qaraganda she’riy matnda mahalliy koloritni yaratish bilan birga bu so‘zlarda qo‘shimcha ma’no noziklarining mavjudligi, ohangdorligi, ifodaviyligi shoirning badiiy maqsadini aniq va ta’sirchan yetkazishda muhim.

M.Yo‘ldoshev ta’kidlaganidek, “aksariyat dialektal so‘zning ma’no tarkibida “hududga mansublikdan”dan iborat ifoda semasidan tashqari “belgining ortiqligi” ifoda semasi ham mavjud bo‘ladi. Bu esa badiiy nutqning ifodaliligini oshirish uchun qulay imkoniyatdir” [4.63]. Masalan, shoir *hulvo* leksik dialektini she’rlarida qo‘llaydi. Bu so‘z adabiy tildagi *yalpiz* so‘zi bilan ma’nodosh, ammo *hulvo* so‘zining ma’no tarkibida “hududiy mansublik” bilan birga “belgining ortiqligi” semasi ham bor. Bu ifoda semasi aynan so‘zning fonetik qobig‘idagi “erkalik, erkinlik” ohangi orqali alohida sezimda anglashiladi.

Yuz oyoq, yuz qo‘lli,
ming bir iboli.
pardaga o‘ralgan yonoqlarida.
Eh, qanday sehrli sadolar uxlar

*bu **hulvo** qizlarning tomoqlarida*. (“Aravon ko‘rinishlari”)

Bu fonetik qobig‘i butun, poetik jarangga ega so‘z shoirning e’tiborini tortgan. Bu so‘z bilan she’riy to‘plamini nomlaydi, she’rlarida qo‘llaydi, hatto Rafael Albertining she’rlari tarjimasida ham foydalanadi. Bu haqida to‘plamda shunday yozilgan: “Darvoqe, to‘plamning “Hulvo” deb nomlangani bejiz emas. Boychechak bahorning elchisi bo‘lsa, hulvo – yalpiz erka qizidir. Shoir hulvoning xush bo‘ylarini ezgulikning munavvar nasimlari timsolida bizga taqdim etayotir” [6.64]. Demak, shoirning bu so‘zni qo‘llashidan o‘ziga xos maqsadlari bor: birinchidan, so‘z poetik jarangdorligi, *erka, erkin* semalariga egaligi. Ikkinchidan, kitobxon uchun noodatiyligi diqqatni tez tortishi. Uchinchidan, shoirning badiiy-g‘oyaviy maqsadlarini ifodalay olishi. Ya’ni yalpiz doimo yashil rangda bo‘lishi va tetiklantiruvchi iforga egaligi shoir she’rlarida ilgari surgan erk, ozodlik g‘oyalariga mos bo‘lib, shoir unda milliylikni, o‘zlikda sobitlikni ko‘radi.

Ertaga yomg‘irlar keladi,
gurkirab yashnaydi havolar,
***hulvolar** keladi, **hulvolar**,*
oylarga yetajak navolar. (“Yaxshi niyat”)

Shuningdek, shoir she’rlarida qipchoq shevasiga oid *tevalar* (tuyalar), Xorazm shevasiga oid so‘z *solmalar* (olmalar) ham qo‘llanganiga guvoh bo‘ldik. Bundan ko‘rinadiki, uning ijodida sheva birliklarining hududiy jo‘g‘rofiyasi keng, ko‘lami katta. Bu Shavkat Rahmonning so‘z boyligi va taxayyul darajasining beqiyosligini ko‘rsatadi.

Semantik dialektizmlar ham badiiy nutq uchun alohida qimmatga ega. Biror so‘z adabiy tilda ham, shevada ham mavjud bo‘lib, shevada adabiy tilda bo‘lmagan ma’nosi bilan ham qo‘llana olsa, ana shu shevadagi ma’no dialektal ma’no yoki semantik dialektizm sifatida badiiy nutqda o‘ziga xos uslubiy tasviriylikni yuzaga keltiradi [1.27].

Yog‘iladi mayin sas, sado,
*yog‘ar, yog‘ar **shomurut** qori,*
naqadar xush jodugar navo,
ozod, qora sochlar ifori. (“Bir kecha yodi”)

Bu o‘rinda *shomurut* so‘zi daraxt ma’nosida qo‘llangan, uning adabiy tilda *uzun, burama mo‘ylov* [11] ma’nosi mavjud. Ayrim tadqiqotlarda *uzun, burama mo‘ylov* ma’nosida qo‘llangani ta’kidlanadi [11.128]. Biroq bu so‘z agnonomik xarakterga ega. Shomurut keltirilgan parchada “oppoq, g‘uj-g‘uj gullaydigan mevali daraxt” ma’nosini ifodalagan. *Shomurt qori* birikmasida shoir assotsiativ tarzda qorning oqligini gulning oqligiga, mevali daraxt sifatida rizq-ro‘zga ishora qilgan.

Yog‘ar so‘zining takror qo‘llanishi “yog‘iladi” so‘zi bilan boshlangan musiqiy ohangdorligini davom ettiradi. “Yog‘moq” fe’lining “yog‘iladi” tarzida qo‘llanishi qorning yog‘ish tarovati, tempini badiiy aks ettirishda muhim unsur bo‘lib xizmat qilgan. Sheva so‘zlarini faollashtirish orqali o‘zlikni anglash va milliylikni targ‘ib qilish kabi badiiy-g‘oyaviy maqsad ham borligi anglashiladi. Shuni ta’kidlash lozimki, bugungi kunda o‘zbek tilining faol so‘zlar qatlami shoirning she’rlari orqali *hulvo, shomurut* leksemalari bilan boyidi.

Xulosa. She’riy matnda qo‘llangan dialektizmlar poetik jarangga egaligi, ifodaviyligi, vazn talabiga ko‘ra qofiyadoshlik, ya’ni ohang butunligini hosil qilishi, kitobxon e’tiborini tez tortishi, ijodkorning badiiy-g‘oyaviy maqsadini ifodalashi bilan lingvopoetik ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Абдураҳмонов Х., Маҳмудов Н. O‘sha manba. – B. 23.
2. Аширбоев С. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент: Низомий номидаги ТДПУ нашриёти, 2013. – Б. 28.
3. Mullaxo‘jayeva R. Telvakezik – sheva, korrespondent.
4. Йўлдошев М. O‘sha manba. – B. 60.
5. Муллахўжаева Р. Тафаккур янгиланиши. – Тошкент: Муҳаррир, 2019. – 110 б.
6. Раҳмон Шавкат. Ҳулво. – Тошкент: Ёш гвардия, 1987. – 64 б.
7. Файзуллаев Б. “Олтин водийдан шабадалар” романида диалектизмлар // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1975. – №3. – Б. 62
8. Файзуллаев Б. Бадиий адабиётда диалектизмларнинг стилистик вазифалари // – Тошкент: Фан, 1993. – Б. 204.
9. Ҳамроев М. Она тили (Педагогика факультети талабалари учун). – Тошкент: Иқтисод-молия, 2007. – Б.63.
10. https://izoh.uz/word/buvak
11. https://izoh.uz/word/shomurt